Milliy tadqiqotchilar tomonidan ham ta'lim olish huquqi bo'yicha turlicha fikrlar ilgari surilgan. S.B. Shermuxamedovaning fikricha, ta'lim olish huquqining mazmuni shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi uchun ularning ijtimoiy holatidan qat'i nazar bilim va tarbiyaning barcha shakllaridan teng foydalanish imkoniyatini beradigan shaxsning asosiy huquqlaridan biridir [14]. Ushbu fikrda faqatgina ta'lim olishdagi teng masalasiga e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin.

B. Qodirov esa ta'lim olish huquqini shaxsning asosiy huquqlaridan biri sifatida jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlantirishning ustuvor sohalaridan biri sifatida ilm berish va tarbiyani o'z ichiga olgan, shaxs, jamiyat va davlat oldida o'z mas'uliyatini anglaydigan, har jihatdan barkamol shaxsni shakllantirish maqsadini ko'zlaydigan jarayon sifatida tavsiflaydi [15].

Bizningcha, mazkur fikr boshqalariga qaraganda birmuncha mukammalroq hisoblanib, unda ta'lim olish huquqini ta'minlashdan asosiy maqsad ham o'z ifodasini topgan deb aytish mumkin.

Ilm-fanda yuqori natijalarga erishgan g'arb olimlari ham ta'lim olish huquqining mohiyati yuzasidan bir qator muhim fikrlarni ilgari surishgan. Xususan, D.W. Black ta'lim olish huquqi har bir insonning fundamental huquqi, shaxsga boshqa huquqlaridan foydalanishiga zamin yaratuvchi huquq sifatida tavsiflaydi[16].

Ushbu mualliflar tomonidan ta'lim olish huquqining shaxsning moddiy va ijtimoiy holatidan qat'i nazar shaxsga tegishli bo'lgan eng asosiy huquqlardan biri sifatida e'tirof etilganligini alohida qayd etish joiz. Chindan ham ta'lim olish huquqi shaxsning yoshi, sog'lig'i, ijtimoiy kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar har qanday shaxs uchun kafolatlanadigan asosiy huquqlardan biridir. Shuningdek, ushbu olimlarning ta'lim olish huquqi bilim va tarbiya berishga qaratilgan degan fikrlariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki ta'lim olish huquqi nafaqat bilim va tarbiya berishga, balki ma'lum ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan jarayonlarni ham o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarning tahlili asosida ta'lim olish huquqiga quyidagicha mualliflik ta'rifi berish mumkin: "Ta'lim olish huquqi – har bir shaxsga tegishli bo'lgan, davlat tomonidan kafolatlangan, teng huquqlilik asosida erkin foydalanishi mumkin bo'lgan, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallahga va rivojlantirishga qaratilgan konstitutsiyaviy subyektiv huquqdir".

Oliy ta'lim olish huquqi ta'lim olish huquqining bir qismidir. Qonunchilik hujjalarda ta'lim tushunchasi, tizimi, turlari va shakllari mustahkamlangan. Biroq "oliy ta'lim olish huquqi" tushunchasining mazmun-mohiyati to'liq ochib berilmagan. Milliy ilmiy manbalarda ham "oliy ta'lim olish huquqining" aniq va yagona ta'rifi berilmagan. Shunday bo'lsa-da, bir qancha olimlarning ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan ochib berishga oid qarashlari mavjud. Bunda olimlar mazkur tushunchaning muayyan jihatlarini tadqiq etishgan.

T. Amin hamda D.W. Black oliy ta'lim olish huquqini umumiyligi o'rta ta'limni tamomlagan shaxslar olishi mumkinligini qayd etib, oliy ta'lim olish huquqi ta'lim tizimining barcha

darajalarida kamsitishlarni bartaraf etish, minimal standartlar asosida aniq ta'lim yo'naliishlari bo'yicha bilim olish va sifatni yaxshilash majburiyatini o'z ichiga olishini ta'kidlagan[17].

F.R. Xandaker shaxsning rivojlanishga bo'lgan huquqini tahlil qilganda uni "**soyabon huquq**" (**umbrella right**) sifatida e'tirof etgan. Shuningdek, bunday huquqlar sirasiga bir qator ijtimoiy huquqlar kirishini ko'rsatgan [18]. A.K. Weilert esa salomatlikka bo'lgan huquqni "**soyabon huquq**" sifatida baholagan. Umuman olganda, "soyabon huquq"lar shunday huquqlarki, ular o'z tarkibida xuddi soyabonda bo'lgani kabi bir nechta elementlardan iborat bo'ladi. Masalan, salomatlikka bo'lgan huquq, o'z navbatida, davolash muassasasini, davolovchi shifokorni va yana boshqa bir qator masalalarni erkin tanlash huquqiga ega bo'ladi.

Fikrimizcha, ta'lim olishga bo'lgan huquqni ham "**soyabon huquq**" (**umbrella right**) sifatida e'tirof etish mumkin. Chunki oliy ta'lim olishga bo'lgan huquq ham ta'lim olish huquqining tarkibiy qismidir. Shuningdek, shaxs oliy ta'lim olish huquqidan foydalanish bilan birga ta'lim muassasasini, ta'lim shaklini erkin tanlash huquqiga ham ega hisoblanadi.

Manfred Nowak oliy ta'lim olish huquqi odatda madaniy huquq deb hisoblansa ham, u boshqa inson huquqlar bilan bog'liq ekanligini, zamonaviy inson huquqlari qonunchiligidagi oliy ta'lim olish huquqi ta'lim erkinligi va akademik erkinlikni o'z ichiga olgan bilimlar majmui sifatida baholaydi.

Bizningcha, ta'lim olish huquqini Manfred Nowak qayd etganidek, madaniy huquq sifatida to'liq baholab bo'lmaydi. Chunki bu masalada bir qator olimlar A. Bezuglov va L. Belomastnix [19], O. Kutafin [20] ta'lim olishni ijtimoiy huquq sifatida e'tirof etadi. Sh. Asadov esa ta'lim olish huquqini ham ma'daniy, ham ijtimoiy huquqlar qatoriga kiritadi [21].

Fikrimizcha, oliy ta'lim olish huquqini amalga oshirishdan asosiy maqsad shaxsga qaysidir soha yoki ixtisosliklar bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlar berish, uning malaka va ko'nikmalarini shakllantirish orqali tegishli soha bo'yicha mutaxassis tayyorlash hisoblanadi. Bu esa shaxsning ijtimoiylashuviga, ya'ni jamiyatning muhim bir a'zosi sifatida namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, B. Qodirov ta'kidlaganidek, oliy ta'limni modernizatsiya qilish birinchi navbatda, ijtimoiy xizmatlar mexanizmini takomillashtirish zarurati, ijtimoiy tashkilotlar, shu jumladan, ta'lim sohasi tizimining maqsadli ishlashi bo'yicha davlat va jamiyat talabini qondirishga qaratiladi [22]. Bundan ham ko'rindiki, oliy ta'lim olish ijtimoiy soha bilan bavosita bog'liq. Shuning uchun ta'lim olish huquqini ijtimoiy huquq sifatida e'tirof etish mohiyatan to'g'ri deb hisoblashimiz mumkin.

M. Shav va T. Kovanlar barcha shaxslar teng darajada foydalanishi mumkin bo'lgan bilim olish vositasi, muayyan darajaga ega bo'lish imkoniyati deb qayd etishgan [23].

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, oliy ta'lim olish huquqi chindan ham har bir shaxs erkin foydalanishi mumkin bo'lgan subyektiv huquq bo'lib, ma'lum standartlar (davlat ta'lim standartlari) asosida ta'lim oluvchilar tomonidan egallanadigan tegishli soha bo'yicha bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirish va rivojlantirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim olish huquqi tushunchasining mazmun-mohiyati bo'yicha boshqa yondashuvlar ham mavjud. Masalan, S. Mishenko oliy ta'lim olish huquqini zarur darajadagi tayanch ta'limga ega bo'lgan shaxsning kasbiy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi hamda ularni oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy tashkilotda belgilangan ta'lim dasturlari va standartlariga muvofiq rasmiy tan olinishi sifatida baholaydi[24].

O.V. Drobish oliy ta'lim olish huquqini subyektiv huquq deb e'tirof etadi hamda davlat va xalqaro hamjamiyat tomonidan kafolatlangan, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida zarur bilim va malakalarni egallahning real imkoniyati deb hisoblaydi [25]. N.A. Pavlova oliy ta'lim olish huquqini tegishli ixtisoslik bo'yicha shaxsning madaniy-kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalarni egallahsga bo'lgan huquq sifatida ifodalab, har bir shaxs ixtiyorilik asosida foydalanishi mumkin bo'lgan inson huquqlaridan biri ekanligini qayd etgan [26].

Yuqoridagi olimlar tomonidan oliy ta'lim olish huquqining subyektiv huquq sifatida e'tirof etilishi hamda davlat va xalqaro hamjamiyat tomonidan kafolatlanishiga oid qarashlarini alohida e'tirof etish joiz. Shuningdek, mualliflar qayd etganidek, oliy ta'lim olish huquqi shaxsning ushbu huquqdan ixtiyoriy foydalanishi orqali aniq mehnat bozori uchun malakali, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, haqiqatan ham oliy ta'lim aniq mehnat bozori uchun malakali kasbiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

C. Martin oliy ta'lim olish huquqi tushunchasiga to'xtalib, jamiyat hayotida asosiy o'rinn tutishini va shaxsga tegishli bo'lgan subyektiv huquq ekanligini qayd etib, ma'lum doiradagi bilimlarni bosqichma-bosqich berishga yo'naltirilgan hamda xalqaro maydonda kafolatlangan huquqlardan biri ekanligini e'tirof etadi [27]. H. Brighouse va K. Mullane esa oliy ta'lim olish huquqini konstitutsiyaviy huquq sifatida insonning tabiiy huquqi ekanligini ta'kidlab, boshqa tabiiy huquqlardan farqli ravishda ushbu huquq jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida shaxsning ma'lum doiradagi bilimlarni olish va ko'nikmalarni egallahsga bo'lgan huquqlari sifatida baholaydilar [28].

Ayrim mualliflar ushbu huquqni ta'lim olish huquqining bir qismi sifatida ifoda etib, jamiyat manfaatlari uchun barchaga ochiq bo'lishi va uni amalga oshirishga to'sqinlik qilinmasligi, milliy darajadagi hujjatlarda, qonunchilikda, milliy ta'lim rejalarini va strategiyalarida o'z ifodasini topgan universal huquq sifatida qayd etishgan [29].

Biz Yuqoridagi tadqiqotchilardan S. Martin, H. Brighouse va K. Mullane tomonidan bildirilgan oliy ta'lim olish huquqini konstitutsiyaviy subyektiv huquq ekanligiga to'liq qo'shilamiz. Zero, oliy ta'lim olish huquqi amaldagi konstitutsiyamizda mustahkamlandi hamda u fundamental huquqlardan biri sifatida shaxsga tegishli bo'lgan ta'lim olish huquqining bir qismidir.

Shuningdek, oliy ta'lim olish huquqining tabiiy huquq sifatida baholanish holatiga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Sababi, olib borilgan tadqiqotimizda oliy ta'lim olish huquqini tabiiy huquq sifatida ham, pozitiv huquq sifatida ham e'tirof etuvchi tadqiqotchilar mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, V.K. Grishina bepul oliy ta'lim olish huquqini tabiiy huquq sifatida tahlil qilgan [30].

Sh. Asadov ham bilim olish huquqini (oliy ta'lim olish huquqi uning tarkibida) tabiiy huquq mazmunini to'liq saqlab qolgan pozitiv huquq shakli sifatida tavsiflagan [31].

Darhaqiqat, oliy ta'lim olish huquqi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Konstitutsiyamizda inson huquqlari sifatida mustahkamlangan. Konstitutsiyamizning 19-moddasiga ko'ra, inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi deb belgilangan. Ushbu qoida oliy ta'lim olish huquqi tabiiy huquq ekanligidan dalolat beradi deb aytish mumkin. Biroq, fikrimizcha, huquq nazariyasi bo'yicha davlat tomonidan yaratiladigan huquq pozitiv huquq ekanligidan kelib chiqib oliy ta'lim olish huquqini pozitiv huquq sifatida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Nega deganda shaxsning oliy ta'lim

olish huquqini amalga oshirishni hukumat aralashuviziz tasavvur etish qiyin hisoblanadi. Chunki oliy ta'lim olish uchun barcha sharoitlar, xususan, ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish, ularni malakali kadrlar hamda moddiy-texnik baza (bino va inshootlar, texnik vositalar va boshqalar) bilan ta'minlash davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim olish huquqi tushunchasining mazmun-mohiyati bo'yicha yana boshqa yondashuvlar ham mavjud. Misol uchun, K. Joames va M.S. Vaskuyezlar oliy ta'lim olish huquqini ota-onalarning o'z xohish va imkoniyatlaridan kelib chiqib, har bir shaxsning ma'lum yo'naliш bo'yicha belgilangan ta'lim dasturlarini o'zlashtirish imkoniyati sifatida baholaydilar [32]. T. Jukova esa mazkur huquqni fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining teng huquqlilik, mulkiy mustaqillik va fuqarolar irodasining erkinligi prinsiplari asosida amalga oshiriladigan nomulkiy huquq deb hisoblaydi [33].

Mazkur fikrlarga qisman qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, oliy ta'lim olishda ota-onalar, shu jumladan, ta'lim oluvchilar ta'lim muassasalari hamda ta'lim shakllarini (kunduzgi, sirtqi, masofaviy) o'zlarining xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga ega. Bunda ta'lim oluvchi davlat ta'lim standartlariga muvofiq belgilangan talablar asosida ta'lim dasturlarini o'zlashtiradi.

Sh. Asadov ham aynan bizning fikrlarimizga muvofiq holda oliy ta'limning asosiy xususiyatini ko'rsatib o'tgan. Ya'ni tadqiqotchining fikricha, oliy ta'lim majburiy tavsifga ega emas, shaxs oliy ta'lim olishni o'zining qobiliyati, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqib hal etadi [34].

Yuqoridagi fikrlarni oliy ta'lim olish huquqi nuqtayi nazarida tahlil etadigan bo'lsak, ta'lim oluvchi shaxslar oliy ta'lim tashkilotini o'zining xohish-irodasidan kelib chiqib tanlashi, oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan (to'lov-kontrakt asosida) har bir ta'lim oluvchi fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchisi sifatida ta'lim tashkiloti bilan tuziladigan shartnoma asosida o'qishi mumkin.

Ushbu holat ta'lim olish huquqining fuqarolik-huquqiy munosabat sifatida shaxsiy nomulkiy huquqlar qatoriga kirishini ko'rsatmoqda hamda shartnoma tuzish erkinligi prinsipidan kelib chiqib talaba shartnoma asosida ta'lim olishi mumkin. Ta'kidlash joizki, qonunchilik bo'yicha ta'lim oluvchilar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ham ega [35].

A.I. Belyaykinaning tavsifiga ko'ra, ta'lim olish subyektiv huquqi har bir shaxsning uyg'un rivojlanishi va butun jamiyat rivoji uchun bilim olish, ko'nikma, shaxsiy xususiyatlar va boshqa kompetensiyalarni shakllantirishning qonuniy ta'minlangan imkoniyatidir [36]. A.I. Belyaykina, S.V. Kurov va V.V. Gavrilshuklar oliy ta'lim olish huquqining subyektiv huquq sifatidagi belgilariga quyidagilarni kiritishgan:

- ta'lim olish huquqining konstitutsiyaviyligi;
- shaxs manfaatlari bilan bog'liq ekanligi hamda boshqa shaxslarning manfaatlari va obyektiv huquq normalari bilan chegaralanganligi;
- boshqa shaxslarning huquqiy majburiyatlar bilan ta'minlash [37].

M.A. Shoshina ta'kidlaganidek, turli davrlarda aholining ayrim guruhlari uchun oliy ta'lim olish huquqini amalga oshirishda cheklar mavjud bo'lgan. Sababi, ta'lim olish huquqi turli huquqiy munosabatlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgani uchun uni amalga oshirish murakkab jarayon sifatida baholangan [38].

Shuni ham unutmaslik kerakki, har qanday huquqlarni, shu jumladan, oliv ta'lim olish huquqini amalga oshirishda ayrim cheklovlar (oliv ta'lim qamrovining yetarli emasligi, qabul kvotalarining cheklanganligi, barcha ta'lim shakllari uchun bir xil imkoniyatlar yaratilmaganligi, jumladan, masofaviy ta'lim shaklining barcha ta'lim muassasalarida mavjud emasligi, ushbu ta'lim shakli uchun qabul kvotalarining kam ajratilishi, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda zamonaviy yondashuvlarning qo'llanmasligi, o'quv jarayonining eskirgan mexanizmlar orqali tashkil etilishi) yuzaga kelishi ham tabiiy holat hisoblanadi.

O. Chuboyeva va R. Xusainovlar ham oliv ta'lim islohotlari haqida fikr yuritib, o'rta maktab va kollejlar bitiruvchilarining oliv ta'lim olish huquqini ta'minlashda oliv ta'lim bilan qamrab olish masalasini oliv ta'lim sohasida yechimini kutayotgan dolzarb muammolar sifatida qayd etishgan [39].

Bundan tashqari, B. Qodirov to'g'ri ta'kidlaganidek, oliv ta'lim bilan qamrov darajasini oshirishga davlat tomonidan qabul parametrlarini oshirish yoki qabul parametrlarini belgilashda ta'lim muassasalariga mustaqillik berish asosiy omil hisoblanadi [40].

Shu o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda oliv ta'lim bilan qamrov darajasi 2016-yildagi 9 foizdan 42 foizga, oliygohlarimiz soni 77 tadan 212 taga yetkazildi [41]. Aynan mana shu faktor ham oliv ta'lim olish huquqini tabiiy huquq sifatida emas, balki davlat tomonidan ta'minlab beriladigan, davlat ishtirokisiz ta'minlashni tasavvur etish qiyin bo'lgan pozitiv huquq ekanligidan dalolat beradi deb hisoblaymiz.

Shuningdek, ayrim mualliflar oliv ta'lim olishga bo'lgan subyektiv huquqning mazmuni uning amalga oshirilishini ta'minlaydigan imkoniyatlarga bog'liq ekanligini qayd etib, ularga quyidagilarni kiritishgan:

- 1) ta'lim oluvchi shaxs ta'lim olish va undan foydalanish huquqini amalga oshirish, bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish uchun mustaqil harakatlar qilish;
- 2) ta'lim olish va undan foydalanish huquqini amalga oshirishda boshqa subyektlardan o'z majburiyatlarini bajarishni talab qilish (boshqa shaxslarning harakatlariga bo'lgan huquq);
- 3) ta'lim olish huquqi buzilgan taqdirda (davlat majburlovi) buzilgan huquqlarni tiklash uchun vakolatli organlarga murojaat qilish;
- 4) ta'lim olish huquqini amalga oshirishda muayyan ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish [42].

Yuqorida tahlillardan kelib chiqqan holda oliv ta'lim olish huquqining yuridik tabiat sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- oliv ta'lim olish huquqi konstitutsiyaviy subyektiv huquq hisoblanadi;
- inson huquqlarining konstitutsiyaviy tasnifi bo'yicha ijtimoiy huquqdir;
- oliv ta'lim olish huquqi murakkab subyektiv huquq (**comprehensive right**)dir;
- oliv ta'lim olish huquqi "soyabon huquqi" (**umbrella right**) bo'lib, u ayni vaqtda davlat tomonidan beriladigan pozitiv huquq (**positive right**) hisoblanadi;
- oliv ta'lim olish huquqi muayyan majburiyat bajarilganidan so'ng, ya'ni majburiy umumiyo'rta ta'lim tamomlanganidan so'ng vujudga keladi;
- oliv ta'lim olish ixtiyorilik asosida, ya'ni oliv ta'lim olish yoki olmaslik, ta'lim olish shakllarini, ta'lim yo'nalishlari va ta'lim muassasalarini erkin tanlash asosida amalga oshiriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, oliv ta'lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biri sifatida nafaqat shaxsning rivojlanishiga, balki shaxsning bu huquqini ta'minlash davlatning ham rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. // <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
2. Dunyo mamlakatlari konstitutsiyasida bepul ta'limning kafolatlanishi. Free education: <https://www.constituteproject.org/topics>
3. Асадов Ш.Ф. Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг билим олиш ҳуқуқининг конституциявий асослари/ Ю.ф.н. дисс. – Т., 2009. 42-б.
4. Международная стандартная классификация образования (МСКО): утв. 5 октября 2011 г. на 36 сессии Генеральной конференции ЮНЕСКО. – М., 2011., п.12. С. 3.
5. Хайтметов Р. Иммануил Кант ва педагогика // Academic research in educational sciences. 2020. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/immanuil-kant-va-pedagogika> (дата обращения: 23.12.2023); Eshchanov B.K., va Arzikulov Z.K. (2020). Using information technology in the teaching of atomic physics in higher educational institutions. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(2), pp. 6218-6222.
6. Крухмалева О.В. Современные тенденции в получении образовательных услуг // Социс. 2011. № 9. С.83-88.
7. Шкатулла В.И. Образовательное право: Учебник. – М.: Норма-инфра, 2001. – С. 203.
8. Асадов Ш.Ф. Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг билим олиш ҳуқуқининг конституциявий асослари/ Ю.ф.н. дисс. – Т., 2009. 14-б.
9. Кодиров Б.Б Ўзбекистон Республикасида олий таълим муассасаларини бошқаришнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари / Ю.ф.н. дисс. – Т., 2012. 17-б.
10. Федоренко С.П. Метавселенная и право на образование: теоретико-правовой аспект // Северо-Кавказский юридический вестник. 2022. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/metavselennaya-i-pravo-na-obrazovanie-teoretiko-pravovoy-aspekt> (дата обращения: 23.07.2023).
11. Шилюк Т.О., Жабин Н. А. Право на образование и его защиты //Актуальные проблемы российского права. – 2013. – №. 6. – С. 698-705.
12. Беляйкина А.И. Конституционное право на образование и проблемы его реализации // Вестник РУК. 2022. №2 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/konstitutsionnoe-pravo-na-obrazovanie-i-problemyego-realizatsii-1> (дата обращения: 23.07.2023).
13. UNESCO statistika instituti ma'lumoti. // <https://uis.unesco.org/en/topic/literacy>
14. Шермухамедова С.Б. Таълим-тарбия жараёнини ташкил этишнинг ҳуқуқий-меъёрий хужжатлари модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2018. 32-бет.
15. Кодиров Б.Б. Некоторые вопросы совершенствования образовательного законодательства // Обзор законодательства Узбекистана. – 2018. – №. 2. – С. 10-12; Содиқов Н. Профессионал таълимнинг ижтимоий-иқтисодий зарурати // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – Т. 24. – №. 3. 398-404-б.
16. Black D.W. The fundamental right to education //Notre Dame L. Rev. – 2018. – Т. 94. – Р. 1059.
17. Amin T. Right to Education of the Autistic Children: An Overview //ASA University Review. – 2015. – Т. 9. – №. 2; Black D.W. The fundamental right to education //Notre Dame L. Rev. – 2018. – Т. 94. – Р. 1059.
18. Khandaker.R. (2010). Linkage between Right to Development and Rights-based Approach: An Overview. Northern University Journal of Law.
19. Безуглов А., Беломастных Л. Конституционное право Росси. – М.: Издательство АЭФП, 2004. – ст 325
20. Кутафин О. Конституционное право Росси. – М.: Юристъ, 2003. – С. 286.

21. Асадов Ш.Ф. Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг билим олиш ҳуқуқининг конституциявий асослари / Ю.ф.н. дисс. – Т., 2009. 28-б.
22. Қодиров Б.Б. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимида кадрлар тайёрлашнинг ташкилий-хуқуқий асосларини такомиллаштириш / Ю.ф.д. дисс. – Т., 2019. – 77-б.
23. Shaw M. P. The public right to education //U. Chi. L. Rev. – 2022. – Т. 89. Р. 1179; McCowan T. Reframing the universal right to education //Comparative Education. – 2010. – Т. 46. – №. 4, pp. 509-525.
24. Мышенко С.А. Право на высшее образование в России и Германии (сравнительно-правовое исследование) //URL: <https://www.dissercat.com/content/pravo-na-vysshee-obrazovanie-v-rossii-i-germanii-sravnitelnopravovoe-issledovanie>. – 2015.
25. Дробыш О.В. Понятие, содержание и структура конституционного права на высшее образование. – 2017.
26. Павлова Н.А. Право на высшее образование и многообразие институтов высшего образования в США //Региональные особенности рыночных социально-экономических систем (структур) и их правовое обеспечение. – 2015. – С. 70-75.
27. Martin C. The right to higher education: A political theory. – Oxford University Press, 2022.
28. Brighouse H., Mullane K. The right to higher education and the gap between ideal theory and non-ideal decisions //Theory and Research in Education. – 2023. – Т. 21. – №. 1. – С. 77-81.
29. Sabzaliyeva E, Gallegos D, Yerovi C., Chacon E, Mutize T, Morales D, Andres J. The right to higher education: A social justice perspective. – 2022. Р.8.
30. Гришина В.К. Конституционное право гражданина Российской Федерации на образование // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2020. №6-3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/konstitutsionnoe-pravo-grazhdanina-rossiyskoy-federatsii-na-obrazovanie-1> (дата обращения: 16.01.2024).
31. Асадов Ш.Ф. Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг билим олиш ҳуқуқининг конституциявий асослари / Ю.ф.н. дисс. – Т., 2009. 26-б.
32. Волохова Е.Д. Законодательное обеспечение права на образование в Российской Федерации: монография. М.: Готика, 2004. 320 с.
33. Жукова Т.В. О праве на образование как о личном неимущественном праве // Законы России: опыт, анализ, практика. 2012. № 4. С. 42–47.
34. Асадов Ш.Ф. Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг билим олиш ҳуқуқининг конституциявий асослари / Ю.ф.н. дисс. – Т., 2009. 93-б.
35. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни // Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.
36. Беляйкина А.И. Конституционное право на образование и проблемы его реализации // Вестник Российского университета кооперации. – 2022. – №. 2 (48). – С. 103-109.
37. Беляйкина А.И. Правовая позиция // Правовая позиция Учредители: Государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования «Донбасская аграрная академия». – №. 7. – С. 7-14; Куров С. В., Гаврищук В. В. Безопасность права на образование //Право и образование. – 2014. – С. 60-68.
38. Шошина М.А. Конституционное право на образование и проблемы его реализации // Алтайский вестник государственной и муниципальной службы. 2015. №13. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/konstitutsionnoe-pravo-na-obrazovanie-i-problemyego-realizatsii> (дата обращения: 24.07.2023).
39. Чубоева О, Хусаинов Р. Таълим ислохотлари – давр талаби //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – Т. 11. – №. 1. – С. 12-16.

40. Қодиров Б.Б. Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимида кадрлар тайёрлашнинг ташкилий-хуқуқий асосларини такомиллаштириш / Ю.Ф.д. дисс. – Т., 2019. – 46-б.
41. Ш. Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон ўқитувчи ва мураббийларига байрам табриги. 30.09.2023.
<https://president.uz/uz/lists/view/6702>
42. Беляйкина А.И. Конституционное право на образование и проблемы его реализации // Вестник РУК. 2022. №2 (48). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/konstitutsionnoe-pravo-na-obrazovanie-i-problemy-ego-realizatsii-1> (дата обращения: 24.07.2023).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 8 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулити чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).